

## O'ZBEKISTON QAHRAMONI ABDULLA ORIPOV IJODIGA CHIZGILAR...

*Nigora Tog'ayeva Qudratovna*

*Kasbi tumanidagi 58-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi,  
O'zJOKU talabasi, jurnalist*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifi, Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho'lpon, G'afur G'ulom kabi badiiy ijodkorlar o'lmas ijodining davomchisi Abdulla Oripov adabiyotga yangicha badiiy tafakkur olib kira olgan shaxsdir. Bolaligi Qashqadaryo viloyatining Koson tmanidagi Neko'z qishlog'ining tor ko'chalarida kechgan. Bu buyuk yozuvchi Abdulla Qahhor hamda Oybekning akademik rahbarligida ijodini nafaqat o'zbek xalqi, balki qardosh va dunyo davlatlari ta'sirlanib, ilhomlanib, to'lqinlanib maroq bilan mutolaa qiladigan meros qoldirgan. "O'zbekiston SSR Xalq shoiri" hamda "WIPO Creativity Award" oltin medali bilan mukofotlangan. Mazkur maqola o'lmas so'z san'atkorining hayoti va ijodi, uni o'zrgangan shaxslar haqidadir.

**Kalit so'zlar:** she'riy to'plam, tarixiy-adabiy jarayon, drama, ocherk, publitsistik maqola

**Abstract:** The author of the national anthem of the Republic of Uzbekistan, the successor of immortal artists such as Yassavi, Navoi, Bobur, Cholpon, Gafur Gulom, Abdulla Aripov is a person who was able to bring a new artistic thinking to literature. z passed through the narrow streets of the village. Under the academic guidance of the great writer Abdullah Qahhor and Oybek, he left a legacy that will inspire, inspire and excite not only the Uzbek people, but also the fraternal and world nations. The People's Poet of the Uzbek SSR and the WIPO Creativity Award This article is about the life and work of the immortal word artist, the people who changed him.

**Keywords:** poetry collection, historical-literary process, drama, essay, journalistic article

### KIRISH

1941-yilning 21-martida dunyoga kelgan yosh Abdulla o'zi haqida deydi: Qo'ng'irtov etagiga o'rnashgan bo'lib, oqar suv taqchil bo'lsa-da, seryomg'ir kelgan yillarda ko'kat-u maysalarga ko'milib qoladigan kengish joy edi. Bu haqida shoirning o'zi shunday yozadi: "Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerlarga yog'in ko'p tushar, Qo'ng'irtov etaklari ming xil o't-o'lan, chuchmoma-yu qizg'aldoqlar bilan, quyonto'pig'-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo'zigullar bilan qoplanar, tevarak-atrof jannatiy bir manzara kasb etardi. Sel suvlari to'planib qolgan kichik-

kichik ko'llarni „qoq“ deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-baqra chuchmomay-u ismaloq, zamburug' terib, Qo'ng'irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi"[1]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Otasi- Orifboy Ubaydulla o'g'li, onasi Turdixol momo. Har ikki insonda ham chinakam o'zbek xalqiga mos sarishtalik, axloq-odob, mehnatkashlik mujassam edi. Otasi dehqonchilik bilan kun kechirgani manbalarda keltiriladi. Shoir va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O'zbekistonni» singari dastlabki she'rlari talabalik yillarida yozilgan va o'zbek she'riyatiga yangi, iste'dodli, o'ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergan. Ko'p o'tmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she'rlar to'plamining nashr etilishi she'riyat muxlislarida paydo bo'lgan shu dastlabki tasavvurning to'g'ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O'zbekiston» (1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «Haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgani ham bizga ma'lumdir. A. Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezlari O'zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she'riyati Muhammad Yusuf kabi ko'plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani ahamiyatga molikdir.[2]

### **MUHOKAMA**

Buyuk yozuvchi faqatgina nazmda ijod qilib qo'ymay, balki u tarjimashunoslik bilan ham shug'ullangan. Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante «Ilohiy komediya»sining «Do'zax» qismini, A. S. Pushkin, N. A. Nekrasov, T. G. Shevchenko, L. Ukrainka, R. Hamzatov, Q. Quliyev va M. Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbay-jon kabi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. Abdulla Oripov ijodining naqadar qimmatli ekanligini birgina "Sohibqiron" dramasi orqali ta'riflamoqchiman. Oddiyginasozlardaemas, rangli bo'yoqlarda, real hayotiy voqea-hodisalar orqali sohibqiron hayotidan parcha tasvirlangan. Asarda Amir Temur janglarda emas, balki ko'proq o'ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiati uning Amir Husayn, sulton Boyazid, amirlar, o'g'illariga munosabatini ko'rsatish mobaynida yorqin aks etgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o'ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni: „Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar“, — deya belgilaydi.

## NATIJA

Uning jahongirlik tabiati suruvda bitta cho‘pon bo‘lganiday, xalqni ham bir podshoh boshqarishi kerakligi borasidagi qanoatida namoyon bo‘ladi. Dramada Temurning fuqarolarga munosabati: „Hukmdorlar seva turib fuqarolarni, Umid hamda qo‘rquv ichra saqlashi darkor“, — degan qarashida aks etadi.[3] XULOSA Xulosa o‘rnida aytganda, A.Temur shaxsi asarda aniq ko‘rsata olingan deyishimiz mumkin. A.Temurning har jabhada, har qanday holatda ham og‘ir vazminlik bilan qaror qabul qilishi(Sulton Boyazidning urushga chorlash ma'nosidagi xat yuborganida, A.Temur tutgan yo'lni eslash kifoya) hamda har qanday ezgu ishli insonlar doim mukofot olishi amallarida tasvirlangan(Hofiz Sheroziy hamda Qosimbekning A.Temur tomonidan taqdirlanishi).Bu esa muallif A.Oripov tomonidan dunyoga kelgan asarnining hali uzoq yillar o'zbek xalqining mardlik ramzi bo'lmish-A.Temur va Temuriylar avlodi, yurtimiz, xalqimiz uchun qilgan ezgu amallari, jasoratlari to'g'risida asosli manba bo'lishiga ishonamiz. Temurning fuqarolarga adolatli munosabati: „Hukmdorlar seva turib fuqarolarni, Umid hamda qo‘rquv ichra saqlashi darkor“, — degan qarashida aks etadi. Abdulla Oripov she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, uning yana bir xislati haqida to‘xtalib o‘tmog‘imiz joizdir. Bu xislat shoir she‘rlaridagi badiiyatdir.

“Lirik poeziyani faqat muzika bilan solishtirish mumkin,” — degan edi V.G. Belinskiy. Yana u so‘z ma‘nosi yo‘qolib, his va musiqiy sadoga aylanishi haqida ham ajoyib fikr aytgan[43]. Poeziyani “his va musiqiy sadoga” aylantiruvchi omil, bu she‘rning badiiyatidir.

Badiiyat – bu, go‘zallikdir, tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan she‘riy tafakkur go‘zalligidir. “Go‘zallikning o‘zi muhim g‘oya. Bu go‘zallikni bo‘lib-bo‘lib tahlil etish daryodagi erkin baliqni tutib, pichoqda kesib, a‘zolarini tekshirib, yana suvga qo‘yib yuborish bilan teng. Baliq faqat suvda yayragandagina odamning havasini keltiradi. To‘g‘ri, suvdagi baliqni tamosho qilishdan ko‘ra uni yeyishni afzal ko‘radigan odamlar ham oz emas. Bunday hissiz odamlar faqat san‘at go‘zalligini emas, hayot go‘zalligini ham ko‘rmaydilar. To‘g‘risi, kun kechiradilar”[44], — deb yozadi taniqli munaqqid Mahkam Mahmudov.

Badiiyat, Mahkam Mahmudov iboralari bilan aytganda, “inson qalbidagi manzaralarning cheksiz bo‘yog‘ini his etmoqdir”. Shoir so‘zdan tuyg‘u yaratadi, tuyg‘ular orqali, tuyg‘ular bo‘yog‘i bilan esa inson qalbining manzaralarini chizib beradi.

Mahkam Mahmudov yozadi: “So‘zning buyuk qudratini zarracha inkor etmaganimiz holda, shuni aytishimiz kerakki, tuyg‘u agar daryo bo‘lsa, so‘z uning qirg‘og‘i, tuyg‘u agar parivash qiz bo‘lsa, so‘z uning surati, tuyg‘u agar gulzor bo‘lsa, so‘z- rassomning bo‘yog‘i. Yong‘oqdan murod uning mag‘zi, qig‘oqdan murod uning suvi. Suratdan murod uning sohibasi, bo‘yoqlardan murod gulzorning o‘zi”[45].

Munaqqid fikrlaridan anglashiladiki, she'riyatning ham asl murodi inson tuyg'ulariga ta'sir etmoqdir. Lekin she'riyatda badiiylik bo'lsagina inson tuyg'ulariga ta'sir etadi. Yolg'ir fikrning o'zi inson qalbiga, uning tuyg'ulariga ta'sir etmaydi. She'riyat esa tuyg'ularga ta'sir eta olish qudrati bilan boshqa san'atlardan farq etadi.

Filologiya fanlari kandidati, dotsent Muhammadjon Madg'oziyev "Badiiylik nima, menga tushuntirib bersangiz", — deb xat yozgan havaskorlarga shunday javob yozibdilar: "So'rab ko'ring-chi, asalari asal yig'ishni kimdan o'rgangan ekan, gullar rango rang ochilishni va muattar bo'y sochish haqida kimdan maslahat olgan ekan? Badiiylik ham xuddi shuning kabi hayotiylik va haqqoniylikdadir"[46].

Abdulla Oripov she'riyatining qudrati ham uning yuksak darajadagi badiiyligidadir. Lekin uning she'rlarida sun'iy badiiylik, zo'rma-zo'raki o'xshatishlar, mantiqqa zid bo'lgan jonlantirishlar orqali badiiyat yaratilmaydi.

### **REFERENCES**

1. Sharafiddinov O. She'riyat — qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
2. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
3. Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma'naviyat“, 2000.